


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B. Yunusov
2024-yil "04" 08



VETERINARIYA PROTOZOLOGIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi: 840000 – Veterinariya
Mutaxassislik: 70840303-Hayvonlarning parazitlar va yuqumli kasalliklari

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi VP1108	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Veterinariya protozoologiyasi	120		120	240
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - "Veterinariya protozoologiyasi" fanini o'qitishdan maqsad magistrlarga protozooz, kasalliklarni sodir etilishi, tarqalishi, kechishi, diagnostikasini, davolash va oldini olish va qarshi kurashish, parazit organizmlarni aniqlash, farqlash va taqqoslashi, protozologiya sohasidagi adabiyotlar ustida ishlash va ulardagi ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarda uchraydigan protozooz kasalliklariga erkin tashxis qo'yish, davolashda har xil usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Qishloq xo'jalik hayvonlari, parrandalarda va muynali hayvonlarda bir hujayrali parazit organizmlar, tomonidan sodir etiladigan invazion kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini sistematikasi, morfologik tuzilishi, biologik, ekologik xususiyatlarini, kasalliklarning epizootologiyasi va patogenezini, immunitetini o'rganish, ularni davolash, oldini olish va qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish tomonlarini o'rgatishdan iborat.</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Veterinariya protozoologiyasi" faniga kirish</p> <p>"Veterinariya protozoologiyasi" fanining umumiy tavsifi. "Veterinariya protozoologiyasi" fanining maqsadi va vazifalari. Fanining tarixi, asosiy rivojlanish bosqichlari va yutuqlari, o'zbek olimlarining qo'shgan hissalari, fanning bo'limlari, qishloq xo'jalik hayvonlarida uchraydigan protozooz kasalliklari turlari. Bir hujayrali sodda hayvonlarning xo'jayin organizmiga ko'rsatgan ta'siri.</p> <p>2-mavzu. Piroplazmidozlarning morfologiyasi va biologiyasi</p> <p>Piroplazmidozlarni morfologiyasi. Piroplazmidozlarni biologiyasi. Piroplazmidozlarni o'rganishda asosan hujayrasini tuzilishi. Piroplazmidozlarni hujayra organoidlari, o'zak, sitoplazma, mitoxondriya, ribosoma, golji apparati va hujayrani ko'payashi.</p>			

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti "70840303- Hayvonlarning parazitlar va
yuqumli kasalliklari" mutaxassisligi uchun "Veterinariya protozoologiyasi"
fanidan tayyorlangan dasturga
T A Q R I Z**

"O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 5 maydagi PQ-2959-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son va 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand veterinariya meditsinasi institutida "O'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda magistratura yo'nalishlarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

"Veterinariya protozoologiyasi" fanining o'quv dasturi "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan bo'lib, unda fan bo'yicha magistrning bilimiga, o'quviga va ko'nikmalariga Davlat ta'lim standartlariga mos keladigan talablar qo'yilgan. Dastur asosiy qism, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ko'rsatmalarga, amaliyot uchun qo'llanmaga ega bo'lib, fanni o'rganishda zarur bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxatiga ega. Dasturga barcha protozooz, kasalliklarni sodir etilishi, tarqalishi, kechishi, diagnostikasini, davolash va oldini olish va qarshi kurashish, parazit organizmlarni aniqlash, farqlash va taqqoslashi, protozologiya sohasidagi adabiyotlar ustida ishlash va ulardagi ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarda uchraydigan protozooz kasalliklariga erkin tashxis qo'yish, davolashda har xil usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat

Mualliflar tomonidan tayyorlangan "Veterinariya protozoologiyasi" fan dasturi Davlat ta'lim standarti, malaka talablari asosida tuzilgan.

Ushbu dastur "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturini ijro etishga amaliy mos kelishini ta'kidlagan holda belgilangan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
Gelmintologiya laboratoriyasi mudiri,
v.f.f.d., (Ph.D.) *Amaliy* xodim

J.M.Isayev



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar "70840303- Hayvonlarning parazitlar va yuqumli
kasalliklari" mutaxassisligi uchun "Veterinariya protozoologiyasi" fanidan
tayyorlangan dasturga
T A Q R I Z**

"O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyuldagi gi PQ-3151-son va 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risidagi" qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "O'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda magistratura yo'nalishlarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

"Veterinariya protozoologiyasi" fanining o'quv dasturi "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan bo'lib, unda fan bo'yicha magistrning bilimiga, o'quviga va ko'nikmalariga Davlat ta'lim standartlariga mos keladigan talablar qo'yilgan.

Dastur asosiy qism, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar va mustaqil ko'rsatmalarga, ilmiy amaliyot uchun qo'llanmaga ega bo'lib, fanni o'rganishda zarur bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxatiga ega. Qishloq xo'jalik hayvonlari, parrandalarda va muynali hayvonlarda bir hujayrali parazit organizmlar, tomonidan sodir etiladigan invazion kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini sistemikasi, morfologik tuzilishi, biologik, ekologik xususiyatlarini, kasalliklarning epizootologiyasi va patogenezi, immunitetini o'rganish, ularni davolash, oldini olish va qarshi kurashish choralarini takomillashtirish tomonlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu dastur veterinariya sohasining Davlat ta'lim standarti, "Hayvonlarning parazitlar va yuqumli kasalliklari" mutaxassisligi malaka talablari asosida tuzilgan bo'lib, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturini ijro etishga amaliy mos kelishini ta'kidlagan holda belgilangan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU
O'simliklar fiziologiyasi va
mikrobiologiya kafedrasida
professori, b.f.d.

tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlari S.N.O'raev

3-mavzu. Piroplazmidozlar diagnostikasi

Kasalliklarga diagnoz qo'yishda klinik belgilari bilan birgalikda laborator tekshirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi tomchi qon olish texnikasi. Nozik surtmanni mikroskopda tekshirish. Piroplazmidozlarda qonda parazitlarni topilishi diagnoz qo'yish va hayvonlarga mos davolash muolajalarini qo'llash uchun yetarli kompleks tekshiruvlar: anamnez, epizootologik ma'lumotlar hisobga olinishi zarurligini aniqlash.

4-5-mavzular. Qoramol piroplazmozi

Qoramol piroplazmozi kasalligiga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari, patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.

6-mavzu. Otlar piroplazmozi

Otlarning piroplazmozi kasalligiga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari, patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.

7- mavzu. Cho'chqa va it piroplazmozi

Cho'chqa va it piroplazmozi kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari, patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.

8-9- mavzular. Qoramollar teyleriozini diagnostikasi va oldini olish choralarini

Teylerioz bilan yirik shoxli hayvonlarning barcha yoshlari va zotlari, shuningdek qo'tos va zebular ham kasallanishi. Teyleriozning mavsumiylik va dinamikasi tashuvchi kanallarning turiga va ularni turli mintaqalardagi turlicha aktivligiga bog'liqligi. Kasallikni yilning iqlimiy xususiyatiga, hayvon organizmining holatiga bog'liqligi.

10- mavzu. Qo'y va echkilarning piroplazmidozlari.

Qo'y va echkilarning piroplazmidozlarining ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchilarining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxisi va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurash va oldini olish usullari.

<p>11-mavzu. Otlar nuttaliyozini diagnostikasi va oldini olish choralari</p> <p>Otlarning nuttaliyozini kasalligiga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>12-13-mavzular. Hayvonlar eymeriozi (koksidiyozlar)</p> <p>Hayvonlar eymeriozi kasallik ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>14-mavzu. Itlarning toksoplazmozi va sistozosporozlarini diagnostikasi va oldini olish tadbirlari</p> <p>Itlarning toksoplazmozi va sistozosporozlari kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>15-mavzu. Sarkotsistoz va benzoitiozini diagnostikasi va oldini olish choralari</p> <p>Sarkotsistoz va benzoitioz kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>16-mavzu. Qoramol trixomonozini diagnostikasi va oldini olish tadbirlari</p> <p>Qoramol trixomonozini kasalligiga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>17-mavzu. Ot, tuya va eshaklarning tripanosomozlarini (su-auru, qochiruv kasalligi) diagnostikasi va oldini olish tadbirlari</p> <p>Tuya, ot va eshaklarning tripanosomozlari (su-auru, qochiruv kasalligi) kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenezi, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va</p>	
--	--

<p>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>9. G'afurov A.G., Davlatov R.B., Rasulov U.I. Qishloq xo'jalik hayvonlarining protozooy kasalliklari. O'quv qo'llanma. "Zarafshon" nashriyoti Samarqand 2010 yil.</p> <p>10. Ятусевич А.И. и др. Паразитология и инвазионные болезни животных. Учебник. Минск. ИВЦ Минфина. 2017 год.</p> <p>11. Denis Jacobs, mark Fox, Lynda Gibbons, Carlos hermosilla // Principles of Veterinary Parasitology // Wiley Blackwell, USA, 2016.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>1. www.gov.uz 2. www.lex.uz 3. www.vetgov.uz 4. www.ziyonet.uz 5. www.labirint.ru 6. www.vetjurnal.uz</p>	
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 "-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Daminov A.S. – SamDVMCHBU, "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish" kafedrasini professori, veterinariya fanlari doktori; K.X.Urokov – SamDVMCHBU, "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish" kafedrasini assistenti, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori., PhD.
9.	Taqrizchilar: O'roqov S.X. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU "O'simliklari fiziologiyasi va mikrobiologiya" kafedrasini professori, biologiya fanlari doktori. Isayev J.M. - Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti "Gelmintologiya" laboratoriyasi mudiri, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori., PhD.

	<p>kasallik qo'zg'atuvchilarni qishloq xo'jalik va boshqa hayvonlarga hamda parrandalarga yuqish yo'llari, Respublikamizda tarqalish darajasi va ulardan keladigan iqtisodiy va ijtimoiy zarari haqida haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • parazit organizmlarni aniqlash, farqlash va taqqoslashi, qo'zg'atuvchilaridan vaqtinchalik va doimiy preparatlar tayyorlash, protozoologiya va araxnoentomologiya sohasidagi adabiyotlar ustida ishlash va ulardagi ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarda uchraydigan protozoz va araxnoz-entomoz kasalliklariga erkin tashxis kuyish, davolashda har xil usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Azimov Dj.A., Yatusovich A.I., Yunusov X.B., Davlatov R.B., Norqobilov B.T., Djabborov Sh.A., Daminov A.S., Oripov A.O., G'afurov A.G'., Yuldashov N.E., Qurbanov Sh.X. "Parazitologiya va invazion kasalliklar". Darslik, "Fan ziyosi" nashriyoti Toshkent, 2024 yil.</p> <p>2. Haqberdiyev P.S., Ibragimov F.B. Veterinariya protozoologiyasi va araxnoentomologiyasi". O'quv qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti Toshkent, 2020 yil.</p> <p>3. Haqberdiyev P.S., Qurbanov Sh.X. Parazitologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma, "Optima print plus" nashriyoti Toshkent, 2015 yil.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</p>

<p>qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>18-mavzu. It leyshmaniozi va parrandalarning gistomonozi diagnostikasi va oldini olish tadbirlari</p> <p>It leyshmaniozi va parrandalarning gistomonozi kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenez, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>19-mavzu. Qoramol va qo'y anaplazmozi diagnostikasi va oldini olish choralari</p> <p>Qoramol va qo'y anaplazmozlari kasalliklariga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenez, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>20-mavzu. Parranda borrelioz (spiroxetozi)</p> <p>Parranda borrelioz (spiroxetozi) kasalligiga ta'rif, tarqalishi va iqtisodiy zarari. Kasallik qo'zg'atuvchining anotomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning epizootologiyasi, patogenez, immuniteti, klinik belgilari va patanatomik o'zgarishlari. Tashxis va qiyosiy tashxisi. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish tadbirlari.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Protozozlarning umumiy tavsifi, sistematikasi 2-3. Protozoy kasallik qo'zg'atuvchilarni morfologiyasi va biologiyasi. 4. Otlarning piroplazmozini diagnostikasi va davolash muolajalari. 5. Cho'chqalarning piroplazmozini diagnostikasi va davolash muolajalari 6. Itlarning piroplazmozini diagnostikasi va davolash muolajalari. 7. Qoramollar eymeriozi diagnostikasi va davolash muolajalari 8. Qo'y va echki eymeriozi diagnostikasi va davolash muolajalari 9. Quyon eymeriozi diagnostikasi va davolash muolajalari 10. Itlarning sistozosporozining diagnostikasi va davolash muolajalari 11. Qoramol sarkosistozining diagnostikasi va davolash muolajalari 12. Qo'y sarkosistozining diagnostikasi va davolash muolajalari 13. Tripanosomozlar qo'zg'atuvchilarni morfologiyasi va biologiyasi 14. Su-auru va qochiruv kasalligining diagnostikasi va davolash muolajalari 15. Itlarning leyshmaniozining diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari. 16. Toksoplazmoz kasallik qo'zg'atuvchisining sistematikasi, anatomo-

	<p>morfologiyasi, biologiyasi va differentsial diagnostikasi.</p> <p>17. Cho'chqa balantidiozining diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari.</p> <p>18. Qoramol anaplasmozlarining diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari.</p> <p>19. Qo'y anaplasmozlarining diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari.</p> <p>20. Parranda borrelioz (spiroxetozi) ning diagnostikasi, davolash, oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari.</p> <p>III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <p>1. Iksodid (yaylov) kanallari sistematikasi, morfologiyasi va biologiyasi.</p> <p>2. Iksodid (yaylov) kanallari – piroplazmidioz kasallik qo'zg'atuvchilarining tashuvchilari va tarqatuvchilari.</p> <p>3-4. Yaylov kanallarini laboratoriya sharoitida aniqlash usullari.</p> <p>5-6. Hayvon tiriklik paytida protozoy kasallik qo'zg'atuvchilarni laboratoriya sharoitida aniqlash usullari (nozik surtma, qalin surtma va majag'langan surtma tayyorlash texnikasi).</p> <p>7-8. Protozoy kasalliklarida mikroskopik tekshirish usullari (sodda parazitlarni tirik holida tekshirish)</p> <p>9-10. Protozoy kasalliklarida serologik tekshirish usullari (RA,RSK, BHAR, Formalin reaksiyasi).</p> <p>11-12. Protozooz kasalliklarda hayvonlarni parenximatoz organlarini diagnostikasi</p> <p>13-14. Protozooz bilan kasallangan hayvonlar qonini gematologik tekshirish</p> <p>15-16. Protozooz bilan kasallangan hayvonlar qonini biokimyoviy tekshirish</p> <p>17. Hayvon o'lgandan so'ng protozoy kasallik qo'zg'atuvchilarni laboratoriya sharoitida aniqlash usullari.</p> <p>18-19. Protozoy kasalliklarida poatologik materiallar yig'ish, fiksatsiya qilish va veterinariya laboratoriyasiga jo'natish usullari va texnikasi</p> <p>20. Laboratoriya tahlillarini umumlashtirish</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <p>1. Transmissiv invazion kasalliklar</p> <p>2. Trasmissiv bo'lmagan invazion kasalliklar</p> <p>3. Protozoalarning sistematikasi, morfologiyasi va bioekologiyasi</p> <p>4. Piroplazmidozlarga zamonaviy tashxis qo'yish usullari</p> <p>5. Juft tuyoqli hayvonlarning piroplazmidozlari</p> <p>6. Toq tuyoqli hayvonlarning piroplazmidozlari</p> <p>7. Chorva mollarning babezidozlari</p> <p>8. Sarkoizosporidioz va izisporidiozlar</p>
--	--

	<p>9. Parranda borrelioz</p> <p>10. Chorva mollarning teyleriozlari</p> <p>11. Otlar nuttaliozi</p> <p>12. Qoramol eymeriozi</p> <p>13. Qoramol beznoitiozi</p> <p>14. Hayvonlar toksoplazmozi</p> <p>15. Cho'chqa balantidiozi</p> <p>16. Xivchinlilar tomonidan sodir etiladigan kasalliklar</p> <p>17. Kipriklilar tomonidan sodir etiladigan kasalliklar</p> <p>18. Prokariotlar tomonidan sodir etiladigan kasalliklar</p> <p>19. Qoramol va qo'ylarning anaplasmozlari</p> <p>20. Protozoozlarning differensial diagnostikasi</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>V. Ilmiy amaliyot (stajirovka)</p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p>Ilmiy amaliyot (Stajirovka):</p> <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; – fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi; – amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; – kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> • protozoz va araxno-entomoz kasalliklarining anatomo-morfologik tuzilishi, biologik rivojlanishi va ekologik xususiyatlari, protozooz va araxnoentomoz